РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Xaydarova Kamola Axinjanovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
“Sanoat iqtisodiyoti” kafedrası dotsenti v.b. (PhD)

Umaraliyev Asliddin Faxriddin o‘g‘li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Hozirgi global iqtisodiy muhitda dekarbonizatsiya jarayonlari, energiya resurslari narxining o‘zgaruvchanligi hamda ekologik talablarning kuchayishi kimyo sanoati korxonalaridan ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Tadqiqotda yashil energetika resurslaridan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik menejment tizimlarini takomillashtirish orqali korxonalarning iqtisodiy samaradorligi va bozordagi ustunligini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish hamda milliy iqtisodiyotning “yashil transformatsiya” jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan kompleks iqtisodiy model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, kimyo sanoati, raqobatbardoshlik, energiya samaradorligi, yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article examines the issues of enhancing the competitiveness of chemical industry enterprises under the conditions of a green economy. In the current global economic environment, decarbonization processes, volatility in energy resource prices, and the tightening of environmental requirements necessitate the modernization of production processes and improvement of energy efficiency in chemical industry enterprises. The study analyzes mechanisms for ensuring the economic efficiency and market advantage of enterprises through the use of green energy resources, the introduction of energy-saving technologies, and the improvement of environmental management systems. The research results contribute to the formation of sustainable development strategies in industrial enterprises and to accelerating the “green transformation” of the national economy. In addition, a comprehensive economic model aimed at increasing the competitiveness of chemical industry enterprises is proposed.

Key words: green economy, chemical industry, competitiveness, energy efficiency, green investments, sustainable development.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы повышения конкурентоспособности предприятий химической промышленности в условиях «зеленой экономики». В современной мировой экономике процессы декарбонизации, изменчивость цен на энергетические ресурсы и усиление экологических требований требуют модернизации производственных процессов и повышения энергоэффективности на предприятиях химической промышленности. В исследовании проанализированы механизмы обеспечения экономической эффективности и рыночных преимуществ предприятий посредством использования ресурсов зеленой энергетики, внедрения энергосберегающих технологий и совершенствования систем экологического менеджмента. Результаты исследования способствуют формированию стратегии устойчивого развития промышленных предприятий и ускорению процесса «зеленой трансформации» национальной экономики. Кроме того, предложена комплексная экономическая модель, направленная на повышение конкурентоспособности предприятий химической промышленности.

Ключевые слова: зеленая экономика, химическая промышленность, конкурентоспособность, энергоэффективность, зеленые инвестиции, устойчивое развитие.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish va ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan “yashil iqtisodiyot” modeli tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish hamda ekologik muammolarning keskinlashuvi sanoat tarmoqlarini, xususan, energiya talabchan bo'lgan kimyo sanoatini transformatsiya qilishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-son¹ qarorida iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarining energiya sig'imini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash ustuvor maqsad sifatida qayd etilgan.

Kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi, qurilish, neft-gaz, to'qimachilik va boshqa ko'plab sohalarni muhim xomashyo va mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur tarmoq yuqori energiya sarfi va atrof-muhitga sezilarli ta'siri bilan tavsiflanadi. Bu esa yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bugungi kunga kelib global bozorlarda ekologik standartlar, uglerod cheklavlari va energiya samaradorligi talablari kuchayib bormoqda. Mahsulot ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Energiya xarajatlarining qisqarishi ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, bu esa mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bois, yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot energiya samaradorligi, yashil investitsiyalar va ekologik boshqaruv tizimlarining korxona faoliyatiga ta'sirini kompleks tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va uning sanoat tarmoqlaridagi tatbiqi masalalari so'nggi yillarda global miqyosda keng o'rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishga qaratilgan.


Porter va van der Linde (1995) o'z tadqiqotlarida korxonalarning raqobatbardoshligi va ekologik samaradorligi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ta'kidlagan. Ularning fikricha, atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan strategiyalar korxonalarda innovatsiyalarni rag'batlantiradi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi. Shu bilan birga, Porter (1990) millat va korxonalar darajasida raqobatbardoshlikni oshirishning strategik tamoyillarini ishlab chiqib, ekologik va energiya samaradorligi kabi omillarning raqobat ustunligini shakllantirishda muhim ekanligini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyotning amaliy tatbiqlari bo'yicha United Nations Environment Programme (UNEP, 2011) va OECD (2017) hisobotlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya tejankor texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashi ta'kidlangan. Xususan, IEA (2022) va IRENA (2021) hisobotlari energiya samaradorligini oshirish va uglerod izini kamaytirish bo'yicha global tendensiyalarni, shuningdek, kimyo sanoati kabi energiya talabchan tarmoqlar uchun imkoniyatlarni batafsil yoritadi.

Kimyo sanoatiga oid tadqiqotlar, jumladan Hart (1995) va Grant (2019) ishlarida korxonalarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi va ekologik strategiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi ta'kidlangan. Elkington (1997) esa “Triple Bottom Line” konsepsiyasini ishlab chiqib, korxonalarda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni birgalikda oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Elkington (1997) tomonidan ishlab chiqilgan “Triple Bottom Line” (TBL) konsepsiyasi korxonalarda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni birgalikda oshirishga qaratilgan yondashuvni taklif qiladi. Hozirgi tadqiqot kontekstida bu konsepsiyaning ahamiyati shundan iboratki, kimyo sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish jarayonida nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ham hisobga olishi lozim (1-rasm).

1 <https://lex.uz/docs/-4539502>



1-rasm. "Triple Bottom Line" konsepsiyasining tarkibiy elementlari²

Iqtisodiy samaradorlik uchun, ya'ni Economy qismiga energiya samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish va rentabellikni oshirish orqali korxona raqobatbardoshligini kuchaytirish qaratilgan bo'ladi. Ekologik barqarorlik bo'limiga esa atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash orqali korxona barqarorligini ta'minlash kiradi. Ijtimoiy samaradorlik qismini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu qismining asosiy tashkiliy qismlari ishchi va jamoat ehtiyojlarini hisobga olgan holda korxona obro'si va barqarorligi hisoblanadi.

Markaziy qismda esa korxona o'z faoliyatida uchala yo'nalishni birlashtiradi, bu esa Triple Bottom Line yondashuvi asosida raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining tatbiqi davlat siyosatida aniq belgilangan. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-4252) va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash vazifalarini belgilaydi. Bu esa O'zbekiston kimyo sanoati uchun yashil transformatsiya orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, global va milliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar eng muhim hisoblanadi:

1. Energiya samaradorligi va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiya qilish;
3. Yashil investitsiyalarni jalb qilish va ularni iqtisodiy samaradorlik bilan bog'lash;
4. ESG mezonlari va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;
5. Raqamli monitoring va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot barqaror rivojlanish konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot nazariyasi, raqobatbardoshlik nazariyasi hamda resurslardan samarali foydalanish tamoyillariga tayanadi. Metodologik yondashuv korxona faoliyatini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida o'rganishga asoslanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi, energiya samaradorligi va ekologik barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish jarayonida nazariy manbalar tahlil qilindi, milliy va xalqaro tajriba o'rganildi, statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy baholash va qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi kimyo sanoati korxonalari tanlandi. Ushbu tarmoqning energiya talabchanligi yuqori bo'lganligi va ekologik ta'sir darajasi sezilarli ekanligi uni tadqiqot uchun dolzarb obyektga aylantiradi. Tadqiqot predmeti esa yashil iqtisodiyot talablari asosida energiya resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish hamda mazkur omillarning iqtisodiy natijalarga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi:



Statistik tahlil: ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, energiya sarfi, investitsiyalar va rentabellik ma'lumotlari yig'ilib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Bu usul yordamida kimyo sanoati korxonalarida energiya samaradorligi va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi munosabat aniqlandi.

Regressiya tahlili: energiya samaradorligi va yashil investitsiyalarning korxona rentabelligiga ta'siri matematik jihatdan baholandi. Regressiya modeli orqali qaysi omillar korxona iqtisodiyotiga eng katta ta'sir ko'rsatishi aniqlandi, bu esa investitsiya va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Solishtirma tahlil: milliy va xalqaro kimyo sanoati korxonalari ko'rsatkichlari taqqoslandi. Bu yondashuv korxonalarning global raqobatbardoshlik darajasini baholash va yaxshi amaliyotlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini aniqlash uchun qo'llanildi.

Indeks yaratish: korxonalarning yashil transformatsiya va raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu indeks ishlab chiqarish samaradorligi, energiya tejamkorligi, ekologik ko'rsatkichlar va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Ssenariy tahlili: turli energiya strategiyalari va investitsiya ssenariylari asosida korxonalarning rentabellik va raqobatbardoshlik darajasi prognoz qilindi. Ushbu tahlil korxonalarni uzoq muddatli strategik rejalarni shakllantirishga yo'naltirish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, davlat dasturlari va strategik hujjatlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbalari sifatida davlat statistika organlarining sanoat ishlab chiqarish hajmi, energiya sarfi, investitsiyalar va eksport ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlari asos qilib olindi. Shu bilan birga, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat siyosati yo'nalishlari ham tahlil etildi. Ma'lumotlarning ishonchligi manbalarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish, dinamik qatorlarni solishtirish va ilmiy adabiyotlar bilan muvofiqlashtirish orqali ta'minlandi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tizimli tahlil usuli asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu usul kimyo sanoati korxonalarini yashil iqtisodiyot sharoitidagi iqtisodiy, ekologik va institutsional omillar ta'sirida faoliyat yurituvchi murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Tizimli yondashuv orqali korxonaning resurslar bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish jarayonlari, energiya iste'moli va tashqi bozor omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida kimyo sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyot sharoitidagi faoliyati iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlar asosida kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish korxonalarning moliyaviy natijalariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, energiya sarfi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi nisbat o'rganildi. Dinamik tahlil natijalariga ko'ra, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi sezilarli darajada kamaygan. Bu esa ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga va rentabellik darajasining oshishiga olib kelgan. Ayniqsa, modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirgan va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan qisman foydalangan korxonalarda energiya xarajatlari ulushi kamaygani kuzatildi.

Tahlil davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish darajasi bilan eksport salohiyati o'rtasidagi bog'liqlik ham o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ekologik talablarga mos ishlab chiqarish jarayoniga ega korxonalar xalqaro bozorlarda yuqori raqobat ustunligiga ega bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, ekologik standartlar qat'iy bo'lgan tashqi bozorlarga chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish korxonalar uchun qisqa muddatda qo'shimcha investitsiya xarajatlarini talab qilsa-da, uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sish va raqobat ustunligini ta'minlaydi. Energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik va innovatsion rivojlanish o'zaro uyg'unlashgan holda korxonaning strategik barqarorligini mustahkamlaydi.

Yashil investitsiyalar va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik tahlili natijalariga ko'ra, dastlabki bosqichda yashil modernizatsiya loyihalari kapital xarajatlarni oshiradi (o'rtacha 15–20 %). Biroq 3–5 yil davomida investitsiyalar o'zini qoplay boshlaydi. Ya'ni: 10 mlrd so'mlik energiya tejamkor loyiha – yillik energiya xarajati tejallishi: 3 mlrd so'm – 4-yilda to'liq qoplanish – 5-yildan boshlab sof iqtisodiy foyda shakllanishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish energiya samaradorligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi: dastlab, energiya samaradorligini oshirish ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish orqali korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilaydi. Energiya sarfining qisqarishi



rentabellik darajasining oshishiga va xarajatlar tuzilmasining optimallashtirishiga olib keladi. Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki eksport salohiyatini oshiradi va xalqaro bozorlarda raqobat ustunligini shakllantiradi.

Uchinchidan, yashil investitsiyalar qisqa muddatda qo'shimcha kapital xarajatlarni talab qilsa-da, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi va korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Yashil iqtisodiyot kimyo sanoati korxonalari uchun nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy imkoniyat ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori // <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. International Energy Agency (IEA). (2023). Energy Efficiency 2023. Paris: IEA.
4. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2023). World Energy Transitions Outlook 2023. Abu Dhabi: IRENA.
5. United Nations Environment Programme (UNEP). (2023). Emissions Gap Report 2023. Nairobi: UNEP.
6. OECD. (2022). Green Growth and Sustainable Development Indicators. Paris: OECD Publishing.
7. Xaydarova K. A., Bakhtiyorova M. B. DIGITAL ECONOMY IN ENTERPRISES II // Экономика и социум. — 2022. — №. 11-1 (102). — С. 348-351.
8. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. Journal of Economic Perspectives, 9(4), 97–118.
9. Elkington, J. (1997). Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Oxford: Capstone Publishing.
10. Hart, S. L. (1995). A natural-resource-based view of the firm. Academy of Management Review, 20(4), 986–1014.
11. Grant, R. M. (2019). Contemporary Strategy Analysis (10th ed.). Wiley.
12. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP.
13. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2021). World Energy Transitions Outlook. Abu Dhabi: IRENA.
14. Ibrohim U. ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. — 2025. — T. 90. — №. 2. — С. 151-157.
15. Ikramovich M. N., Tulkunovna K. F. Prospects for the development and improvement of marketing systems in small business and entrepreneurship based on the modern digital economy // Conferencea. — 2022. — T. 1. — №. 1.
16. O'G'Li U. F. F., Maftuna K., Asliddin U. TASK-BASED LANGUAGE TEACHING: THEORETICAL FOUNDATIONS AND CLASSROOM OUTCOMES // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. — 2025. — T. 5. — №. 12. — С. 206-209.
17. Ravshanovich U. K., Ogli A. U. F. THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS IN THE FIELD OF THE GREEN ECONOMY // ISSN 2181-4147 VOLUME 1, ISSUE 34 DECEMBER 2023. — 2023. — T. 1. — №. 34. — С. 361.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
